

MILLIY QADRIYATLAR TARANNUMI

(Nodir Normatov hikoyalari misolida)

Rushana Zaripova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti

E-pochta: rushanazaripova73@gmail.com

ORCID ID: 0009-0002-8207-2819

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14277204>

Annotatsiya. Milliy qadriyatlarning asarlarda aks etishi o'zbek adabiyotida katta ahamiyatga ega bo'lib, ular madaniy merosimiz va an'analarimizni saqlab qolish, yangi avlodlarga yetkazish vazifasini bajaradi. Qolaversa, oila qadriyatlari, ota-onasi va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar, qarindosh-urug'lik aloqalari keng yoritiladi. Milliy qadriyatlар aks etgan asarlarda qahramonlar o'zining mehnatsevarligi va halolligi bilan o'quvchilarga ibrat bo'lishga intiladi. Shuningdek, sevgi, muhabbat va do'stlik qadriyatlari ham yuksak darajada tarannum etiladi. Bu qadriyatlар insonlar o'rtasidagi iliq munosabatlarni yoritadi.

Kalit so'zlar: qadriyat, milliylik, obraz, xarakter, portret, odamiylik.

HYMN OF NATIONAL VALUES

(In the example of Nadir Normatov's stories)

Abstract. The reflection of national values in literary works holds great significance in Uzbek literature, as they serve to preserve our cultural heritage and traditions, passing them on to new generations. Furthermore, family values, the relationships between parents and children, and kinship ties are widely depicted. In works that reflect national values, characters strive to set an example for readers through their diligence and honesty. Additionally, values of love, friendship, and companionship are highly celebrated. These values highlight the warm relationships between people.

Keywords: values, nationality, image, character, portrait, humanity.

ГИМН НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

(На примере рассказов Надира Норматова)

Аннотация. Отражение национальных ценностей в произведениях имеет большое значение в узбекской литературе, так как они служат для сохранения нашего культурного наследия и традиций, передавая их новым поколениям. Кроме того, широко освещаются семейные ценности, взаимоотношения между родителями и детьми, родственные связи. В произведениях, отражающих национальные ценности, герои стремятся стать примером для читателей своей трудолюбивостью и честностью. Также воспеваются

ценности любви, дружбы и товарищества. Эти ценности подчеркивают теплые отношения между людьми.

Ключевые слова: ценности, национальность, образ, характер, портрет, человечность.

Adabiyot inson fe'l-atvoriga doir jamiki hususiyatlarni badiiy aks ettirishi mumkin. Fe'l-atvor haqida so'z borganda esa har qanday hayotiy qadriyat axloqiy qadriyatga aylanadi. Binobarin, adabiyot bilan axloq o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjud. «*Insonning badiiy timsolini yaratish unga axloqiy nuqtai nazardan baho berish hamdir. Bunday «hakam»lik vazifasidan biron bir adabiyot - na yozuvchining tasvirlanayotgan voqeа-hodisaga nisbatan mutlaq holis munosabatini targ'ib etuvchi (masalan, Flober ijodiy maktabi), na ezgulik va yovuzlik mezonlarini shior qilgan (masalan, XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi dekadentlik adabiy oqimlar chetda turgan emas*»¹.

O'tgan asrning 80-90-yillarida adabiyotda hali-hamon yetakchi, faol, kurashchan qahramonlar yaratish muhim hisoblansa-da, ularning tamomila aksi bo'lgan sodda, xokisor, kamtarin, ammo ko'ngli pok insonlar bosh qahramon sifatida talqin etildi. V.Shukshinning g'aroyib odamlari («chudiki») o'zbek nasrida ham paydo bo'ldi. Tabiiyki, nasrdagi ijodiy izlanishlar yangi qahramonlarning tug'ilishini ham taqozo etadi. Shu ma'noda Nodir Normatov asarlarida obraz yaratish borasida o'ziga xos izlanishlar ko'zga tashlanadi.

Adabiyotshunos U.Normatov ta'kidlaganidek, *bir vaqtlar nazardan chetda qolgan, aslida esa asrash, ardoqlashga munosib odat va qadriyatlarimizni ko'z-ko'z qilishga, shu qadriyatlarimizni o'zida mujassam etuvchi kishilar obrazlarini adabiyotga olib kirishga mayl ortdi*. N.Normatov o'z qissa va hikoyalarida bir toifa qahramonlar yaratdiki, ular tabiatida ana shu sifatlarni kuzatish mumkin. Ularning bugungi shiddatli hayotni anglashi, unga ko'nikishi qiyin kechadi. Yozuvchining qissa va hikoyalaridagi qahramonlar o'zlarining turlicha xarakterlari, qiziqarli taqdirlari bilan o'quvchini o'ziga jalb etadi.

Asarga bosh qahramon qilib kimni tanlash yozuvchining inon-ixtiyori, qolaversa, uning badiiy g'oyasi, niyatiga ham bog'liq. N.Normatov ba'zan qahramonlariga xayrihohdek tuyulsa-da, me'yorga amal qilishi (yuqorida aytganimiz samimiyyat masalasida ham), umuman, qahramonlariga nisbatan munosabatda muvozanatni buzmasligini ta'kidlamoqchimiz. Shu bois ham uning adabiy qahramonlari, rus yozuvchisi V.Rasputin ta'kidlaganidek, qo'g'irchoq kabi jonsiz qiyofalar emas, balki tirik insonlardir.

¹ Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. – Л.: Художественная литература, 1977. – С. 385.

Shu o'rinda aytish mumkinki, adib ijodiga xos muhim xususiyat tasvir etilayotgan voqealardagi sokinlik, qahramonlar xarakteridagi mayinlik zamiriga yashiringan keskir, teran mohiyatdadir. N.Normatov hikoyalaridagi qahramonlar turli avlod va turli ijtimoiy toifaga mansub. Va, tabiiyki, bu obrazlarni yaratishda yozuvchi shu avlod va shu toifaning o'ziga xos xususiyatlari, jihatlarini diqqat markazida tutgan. Ushbu obrazlar talqinida adib turli vosita va usullardan foydalanganki, ularni navbatdagi misollarda ko'rishimiz mumkin.

Inson o'zini qachon baxtli his qiladi. Bunga turlicha izoh berish mumkin. Masalan, yaqin insonlari davrasida baxtli onlarni kechirsa... O'zi ekkan daraxt mevasini totib ko'rsa. Farzandlari ulkan yutuqlarni qo'lga kirtsa... va shu kabilar. Lekin, inson uchun eng asosiysi- bu uni tushunadigan birgina insoni bo'lishi. Uni tushunsa va his qilsa. Ana shunda butun borliq go'zaal ko'rindi. Adibning "Bisot" qissasidagi Qobil lashkar ham umri davomida o'zini tushina oladigan insonni izlaydi va ma'lum ma'noda uni qizi Barnoda topadi. U Barnoning kasal bo'lishida unga atalgan Bisotni doktor Lazginga berib yuborgani, faqat o'zini o'ylagani, bu esa o'zining katta xatosi ekanini tushunib lazgindan zebigardonni qaytarib oladi. Ammo, Barnoga atalgan Bisot ham beshafqat o'lim changalidan uni qutqarib qololmaydi. Barnoning o'limidan so'ng Qobil lashkar o'zini juda yolg'iz his qiladi. Uning atrofidagi odamlar: xotini Kumush ham, o'g'li Omon ham qizi Barnoning o'rnini bosolmaydi. Shuning uchun ham Qobil lashkar ulardan voz kechadi. Qizi Barnoning xayoli, o'y-fikrlari bilan yashaydi. Hatto u Qoratog' kanalidan endigina qishlog'iga qaytganda, birinchi oilasi Oygul yetti yashar qizchasi Barnoni tashlab, Ko'hitangning ortiga –ota yurtiga yashiriqcha ketib qolgan paytda ham ushbu holatga bosiqlik va vazminlik bilan yondashadi, fikr yuritadi. Shuningdek bu jarayonni adib quyidagicha tasvirlaydi.

*"... Qobil bevafoni izlab u yerga borolmasdi. Borsa Oygulning turkman qarindoshlari uni omon qo'yishmasligini yaxshi bilardi. ... Qobil lashkar bu noxush xabardan gangib qolmadidi. Ayollar unga so'z bilan emas, boshni aylantiruvchi qarashlari bilan ham tasalli berishdi, uning yuragiga yangi bir hislar to'lqini oqib kirgandek bo'ldi."*²

Albatta, Nodir Normatov asarlaridagi obrazlarning barchasi yurish-turishi qolaversa butun xatti-harakati bilan surxon odamlarining ma'naviy qiyofasini, faqatgina surxondaryoliklarga xos sodda va samimiylilikni ochib beradilar. Shuningdek, adib ularni so'z bilan chizib beradi.

Adib hikoyalarini tahlil qilar ekanmiz, "O'q" hikoyasida Ahmadjon, "Ayol ovozi"da Malika, "Hushtaklar"da Suyunjon, "Umrning ikki kuni" hikoyasida esa Bo'riqul kabi o'ziga xos obrazlar gavdalantirilgan. "Ayol" hikoyasidagi bosh qahramon Malika ismli hamshira ayol. Hikoyada Malika obrazi orqali o'z kasbining fidokori, samimiylilik va sofdil inson qiyofasi

² N. Normatov «Bisot: qissalar va hikoyalar» T.: "Sharq", 2012. 18-b.

gavdalantirilgan. U san'at oliygohining talabasi bo'lган bemor yigitni tezroq tuzalishini, hayotga qaytishini juda ham xohlaydi. Kasalmand, nimjon, hayotdan umidi so'ngan bu yigit uni hech kim sevmasligini aytib tushkunlikka tushadi. Bu holatni ko'rgan Malika unga achinib, tezroq sog'ayishini istab bemor yigitga uni sevishini aytadi. Ko'zlaridan operatsiya bo'lган bu yigitda hayotga bo'lган ishonchni, umidni va eng asosiysi muhabbatni qayta tiklaydi. Malika singari qahramonlar hayotimizda ham ko'plab uchraydi. "Ayol ovozi" hikoyasidagi Malika mehribonligi, samimiyligi va insoniyligi tufayli kitobxon qalbidan chuqur joy oladi.

Adib Nodir Normatovning ijodiy mahorati uning "Hushtaklar" hikoyasida o'zining yana bir qirrasini namoyon etadi. Ijodkor ushbu hikoyasida inson qalbida so'z bilan ifodalab bo'lmas intim kechinmalarni, qon-qarindoshlik o'rtasidagi rishtalarni, olam va odam munosabatlarini beg'ubor sakkiz yoshli Suyunjon nigohi orqali tasvirlaydi. Suyunjon o'zi endigina sakkiz yoshda bo'lsada, uning qoramag'iz, o'ychan, yoshiga nisbatan kattaroq qiyofasi kishini o'nga toldiradi. Uning sevimli mashg'uloti o'gay opasi bilan –Sharofat bilan adir yonbag'ridagi qizil tuproqdan hushtaklar yasash... Har gal opasi bilan sigir boqish bahonasida hushtaklar yasashi, opasining har bir nozik harakatlarini diqqat bilan kuzatib turishi unga olam-olam quvonch bag'ishlaydi. Uning uchun bolalikning beg'ubor dunyosi, olami-ana shu. Ammo, keyinchalik opasining Ikromjon ismli bola bilan birga qochib ketishi bu shodliklarning barchasiga nuqta qo'ysada, Suyunjon bundan ranjimaydi. Aksincha, kir yuvishdan to o'tin yorishgacha zimmasida bo'lган o'gay opasi Sharofatni "onamning qarg'ishlaridan qutulibdi" deya xursand bo'ladi. Albatta, adib bu hikoyasida hayotda doim uchrab turadigan, inson qalbini larzaga soluvchi o'gaylik munosabatlari, ularning azobli kechmishlarini qisqa satrlarda: o'gay onani Sharofatdan bitta atirni yashirib qo'yib, "*pardoz qilguncha ishni qil*" so'zları orqali ochib bergen. Sharofat qiyinchiliklardan suyagi qotgan qiz. U inson va hayot qadrini hammadan yaxshiroq biladi. Ammo, Suyun nazarida opasi o'zgarib qolgandek. Suyun otasining so'kishlariga qaramasdan hushtaklar yasab, sotib pul topib shaharga opasining uyini izlab boradi. Opasiga arzon-garov bo'lsada atir sotib oladi. Ushbu voqealar chizmasini nigohingiz tasmasidan o'tkazar ekansiz, o'ziga xos sharqona qadriyat, aniqroq qilib aytganda, yaqin insonlarga nisbatan bo'lган mehr-oqibatni Suyunjon timsolida ko'rishimiz mumkin. Ammo, kutilmagan holatdan bolaning ko'ngli xira tortadi. U opasiga sovg'a qilib olib kelgan atir va o'z qo'llari bilan faqat opasi uchun yasagan hushtaklarga opasining qiyo ham boqmasligi uning ko'ngliga ozor beradi. Qisqa vaqt orasida juda katta o'zgarish bo'lganini, opasi va o'zi o'rtasida tubsiz bir jarlik paydo bo'lganini his qiladi. Suyunjon opasidan dunyo istamaasdi. Faqat birgina narsani: opasi o'sha adir yonidagidek jilmaygan ko'yi u yasab kelgan hushtaklarni bir marta bo'lsada chalib korishini juda-juda istagan edi. Lekin, Sharofat yuz-ko'zi, ko'rinishi avvalgidek bo'lsada, ammo nimasidir o'zgarganini bola sezadi. Sharofatning o'ychn va kamgap

bo'lib qolishi vaqt o'tgan sayin hatto asl narsalarning ham mohiyati o'zgarib ketishini ko'rsatib beradi. Nodir Normatov ushbu hikoyasida inson qalbi, uning botiniy kechinmalari har narsadaan mukammaligini yuksak badiiy mahorat bilan taasvirlab beradi. Buni birgina Suyunning "opam meni yaxshi ko'rmaydi, yaxshi ko'rganda hushtaklarni chalib ko'rardi" deya dilidan o'tkazganidan, uning qanchalar ranjiganini bilish mumkin. Shuningdek adibning ushbu kichkina hikoyasi orqali yaqin insonlarga nisbatan e'tiborsizlik, mehr-oqibatning yo'qolib borishi birgina bola tasavvuri orqali tasvirlab berilgan.

"Umrning ikki kuni" nomli qisqagina hikoyada inson hayoti qisman ochib berilgan. Bu hikoyaning bosh qahramoni hisoblangan Bo'riqul xotinining qo'li bilan notanish kishiga yozilgan xatdan o'zini boshqa bir dunyoga tushib qolganidan his qiladi. Bo'riqul kasal xotini Oysaraning xiyonatini bilib qolganidan so'ng o'zini xuddi bir umr aldanib yurgandek his qiladi. Bu holatga dosh bera olmagan Bo'riqul xotiniga bo'lgan nafratini so'ngan sevgisini bildirmoqchi bo'ladi. Buning uchun bir necha martalab maktub yozadi. Ammo, bu maktublarning birortasi pochta qutisiga ham yetib bormaydi. Adib Bo'riqulning qalbidan nafrat aralash sizib chiqqan so'zlarni xatga tushirayotgan holatini shunday tasvirlaydi:

"Mana, qandaydir odamlar bor ekan, -dedi u o'zicha titrab-qaqshab, - ko'z yoshlari yolg'on ekan-da. U endi deraza yonidagi stulga o'tirib, darhol xat yozishga kirishdi. "Oysara! Mening umidim ham, ishonchim ham sen eding. Afsuski, sen muhabbatimga noloyiq ekansan. Hozir senga nisbatan yuragimda nafrat to'lib toshgan. Sen menga tegib olganingga qadar birovni sevgan ekansan. Endi men seni sevolmayman""³ Ammo Bo'riqul suyak sili bilan og'rigan, davolanish uchun Termizdagi "Jayronxona" sanatoriysiga jo'nab ketgan xotini Oysaraga buni bildirishga jur'at qilolmaydi. Bo'riqul xotinini qiynalishini, azob chekishini xohlamaxdi. Ikki o't orasida qolgan Bo'riqul qanday yo'l tutishni bilmay qiynaladi. Hikoyada epigraf qilib olingan M. Lermontovning "Ko'ngil uchun sevgin hech bo'limganda" so'zları ham xuddi Bo'riqul qalbidan yangragan nola kabi jaranglaydi. Chora topalmay qiynalgan Bo'riqul tuyg'ularini vaqt hukmiga tashlashni lozim topadi. Ammo, tushida xotinining qop-qora ko'zlarini Bo'riqulga minnatdor boqqan holda "Mana, men sog'yib ketdim" deya shivirlashining o'zi Bo'riqulga olam-olam orom bag'ishlaydi.

Darhaqiqat, Nodir Normatov qahramonlarining hayoti o'quvchini befarq qoldirmaydi. Uni qiziqtiradi, voqealari izidan borishga undaydi. Nodir Normatov qissalari va hikoyalarida surxon hayoti, surxon havosi ufurib turadi. Bu asarlarni o'qigan kitobxon shu olamga tushib qolganidan, shu insonlar kechinmalarini his qilgandek bo'ladi. Ijodkorning ayrim qahramonlari

³ N. Normatov «Bisot: qissalar va hikoyalar» T.: "Sharq", 2012. 296-bet

o'zini himoya etolmaydigan, bunga hatto ehtiyoj ham sezmaydigan, nihoyat darajada xokisor odamlar. Bu kabi obrazlar yaratish orqali har qanday odam e'tiborga loyiq ekani, asar qahramoni bo'la olishi isbotlanadi.

REFERENCES

1. Adabiyot nazariyasi. 2 jiddlik. Adabiy asar. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1978.
2. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
3. Normatov U. Qahhorni anglash mashaqqati. – Toshkent: O'zMU, 2000.
4. Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. – Л.: Художественная литература, 1977.
5. I. Sulton. Adabiyot nazariyasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2005.
6. Adabiyot va zamon. Maqolalar, adabiy o'ylar, suhbatlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981
7. N. Normatov «Bisot: qissalar va hikoyalar” T.: “Sharq”, 2012.